

# O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 / ISS: 1 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL SUG'URTA ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIYANI ASRASH <i>Yuldashev Akromjon Qurbanazarovich, To'rayev Sherxon Mo'min o'g'li</i>	3
2.	IQLIM O'ZGARISHI TA'SIRIDAGI MOLIYAVIY YO'QOTISHLARDAN HIMOYALASHDA INDEKS SUG'URTALASHNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	6
3.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLLILI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	9
4.	СУФУРТА БОЗОРИ ВА МОЛИЯВИЙ КОНВЕРГЕНЦИЯ ЖАРАЁНИДА УНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ <i>Халиков Умид Рахматуллаевич</i>	13
5.	СУФУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ <i>Maerulova Nilufar Abduxalilova</i>	18
6.	REGULATORY AND FINANCIAL BARRIERS TO SME DEVELOPMENT IN EMERGING MARKETS (IN CASE OF UZBEKISTAN) <i>Tojiyev Abror Rakhmonalievich, Rakhmonaliev Abbos Abror ugli</i>	21
7.	TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK MAHSULOTLARINI SOTISH AMALIYOTINING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI <i>Yunusova Shaxlo Raximjanovna</i>	24
8.	USING MARKETING STRATEGIES TO ENHANCE THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY <i>Bobomurodov Kayimjon Homidovich</i>	29
9.	НЕЙРОМАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ: ГЛУБОКОЕ ПОНИМАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЫБОРА <i>Юлдашев Жамишд Абрарович</i>	32
10.	ЎЗБЕКИСТОН АХОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИДАГИ ТАФОВУТЛАРНИНИНГ ИҚТИСОДИЙ- СТАТИСТИК ТАХЛИЛИ <i>Илёсова Дилбар Исмоил қизи</i>	35
11.	KORPORATIV TUZILMALarda AKSIYALAR BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURSLAR JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xasanov Xayrullo Nasrullahovich</i>	38
12.	ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH UCHUN KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH <i>Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi, Tohirjonov Rahmatillo Farhodjon o'g'li, Hayitaliyev Jahongir Komiljon o'g'li</i>	41
13.	SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA OID UMUMIY NAZARIYA VA YONDASHUVLAR <i>Xalikchayeva Sadokat Ilhomjonovna</i>	43



## YASHIL SUG'URTA ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIYANI ASRASH

**Yuldashev Akromjon Qurbonnazarovich**

"MY INSURANCE" AJ ST Bosh direktori v.v.b., Toshkent xalqaro kimyo universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**To'rayev Sherxon Mo'min o'g'i**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiya magistranti

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 2

Issue: 1

DOI:[https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss1/242](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss1/242)

### ABSTRACT

Ushbu maqolada yashil sug'urtaning iqtisodiy va ekologik ahamiyati, uning O'zbekistonda joriy etilishi va rivojlanirish yo'llari yoritilgan. Yashil sug'urta tabiiy ofatlar va ekologik xavflarni boshqarish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Maqolada xalqaro tajribalar va O'zbekistondagi islohotlar tahlil qilinib, yashil sug'urtaning afzallikkleri va uni rivojlanirish bo'yicha takliflar berilgan.

### KEYWORDS

*Yashil sug'urta, ekologik xavf, barqaror rivojlanish, investitsion jozibadorlik, tabiiy ofatlar, iqtisodiy islohotlar, xalqaro tajriba, sug'urta bozori.*

### Kirish (Введение /Introduction)

Bugungi kunda butun dunyo iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va barqaror rivojlanish masalalariga katta e'tibor qaratmoqda. Atrof-muhitni asrash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning turli tizimlari ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri - yashil sug'urta tushunchasidir. Yashil sug'urta nafaqat ekologik xavflar natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishga, balki iqtisodiyotni barqaror rivojlanirishga ham xizmat qiladi.

Mamlakatimiz ham ushbu jarayonlardan chetda qolmay, ekologik muammolarni hal qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlanirish yo'lida sug'urta mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha ham islohotlar olib borilmogda. Ushbu yo'nalishda ilk qadamlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdagi 108-sonli qarorini ko'rishimiz mumkin. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli loyihibar milliy agentligiga 2025 yil 1 yanvarga qadar Yashil sug'urta xizmatlarini joriy qilish bo'yicha aniq takliflar kiritish belgilandi [1]. Shuningdek, 20.01.2025 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli loyihibar milliy agentlining 3601-sonli "Sug'ortalovchilar reytingini aniqlash va yuritish tartibi to'g'risidagi nizom"i qabul qilingan bo'lib bunda reyting ballarini yig'ishda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida Sug'urta tashkilotlarida yashil sug'urtaning joriy qilingani va amaliyatga tadbiq etilganbelgilangan.

Albatta bu harakatlar natijasida kelgusida Yashil sug'urtani rivojlanirish orqali mamlakatimizda ekologik xavflarni boshqarish, korxonalarни ekologik mas'uliyatga undash va investitsion jozibadorlikni oshirish kabi muhim vazifalarini bajaradi.

Ushbu maqolada yashil sug'urtaning iqtisodiy va ekologik ahamiyati, uning O'zbekistonda joriy etilishi va rivojlanirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Обзор литературы / Literature review)

Yashil sug'urta va uning iqtisodiy hamda ekologik ta'siri haqida turli manbalarda tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, ekologik sug'urtaning global tajribasi, iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va davlat siyosatidagi o'rni haqida xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar mayjud. Shular jumlasidan, Sergey A. Belozerov and Xiaohe Xie (2021)[2] maqolasi Xitoyning yashil sug'urta tizimini o'rganib, uning barqaror rivojlanishini

rag'batlantirishdagi roliga urg'u beradi. Mualliflar yashil sug'urta sohasi atrof-muhitni muhofaza qilishni qo'llab-quvvatlashi, sanoat transformatsiyasi xavflarini kamaytirishi va aholi turmush darajasini oshirishiga e'tibor qaratishgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Xitoy tajribasi o'z yashil moliya tizimini yaratmoqchi bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim tajriba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadi, samarali yashil sug'urta atrof-muhit boshqaruvini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun kompleks xavf boshqaruv strategiyalari orqali muhim ahamiyat kasb etadi.

Xiaowan Xu, Rui Li Shandong Yingcai University, Jinan City, Shandong Province, 250104, China[3]. Ushbu tadqiqot yashil sug'urta iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga iqlim o'zgarishiga qanday yechim bo'lishi mumkinligini o'rganadi. Unda yashil sug'urtaning keng moliyaviy tizimiga integratsiyalashuvi barqaror loyihalarga investitsiyalarni rag'batlantirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Mualliflar dunyodagi eng yirik karbonat chiqindilari chiqaruvchi mamlakatlardan biri sifatida Xitoy yashil sanoatlar uchun zaruriy xavf himoyasini ta'minlash maqsadida yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlanirish muhimligini anglaganini qayd etishadi. Shu tariqa, bu nafaqat iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirishga yordam beradi, balki turli sohalarda barqaror rivojlanish va ekologik xabardorlikni ham oshiradi.

Jahon bankining "Sug'urta Kompaniyalari: Inkluyuziv yashil o'sishni rag'batlantirishdagi hamkorlar" [4] hisobotida sug'urta kompaniyalarining inkluyuziv yashil o'sishni rag'batlantirishdagi rolini bayon qiladi. Unda sug'urtaning tabiiy ofatlar tomonidan yuzaga keladigan iqtisodiy buzilishlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligi, chunki u xavflarni tarqatib, moliyaviy himoya taqdim etishi ta'kidlanadi. Hisobotda sug'urta kompaniyalari yashil o'sishga qanday hissa qo'shishi mumkinligi ko'rsatilgan bir nechta yo'llar keltirilgan:

- Xavf Boshqarvi: Sug'urta kompaniyalari yashil loyihibar uchun moslashtirilgan innovatsion sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishi mumkin, bu esa bizneslarga atrof-muhit xavflarini samarali boshqarishga yordam beradi.

- Yashil Loyihalarga Investitsiya: 20 trillion dollardan ortiq boshqarilayotgan aktivlar bilan sug'urta kompaniyalari barqaror infratuzilma va yashil tashabbuslarga sarmoya kiritish imkoniyatiga ega.

- Siyosatga Ta'sir: Sug'urta kompaniyalari atrof-muhitni muhofaza qilishni rag'batlantiruvchi davlat siyosati jarayonlariga qimmati tahlillarni taqdim etish imkoniyatiga ega.

Bu adabiyotlar yashil sug'urtaning istiqbollari, muammolari va uning iqtisodiy hamda ekologik jihatlariga oid ilmiy asoslarni tushunishga yordam beradi.

### Tadqiqot metodologiyasi (Методология исследования, Research Methodology)

Yashil sug'urta orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologiyani asrash mavzusida ilmiy tadqiqot olib borishda ushbu mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatiga ega ekanligini hisobga olgan holda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, qiyosiy taqqoslash singari usullardan foydalанинди.

#### Tahlil va natijalar (Анализ и результаты, Analysis and Results)

Yashil sug'urta atrof-muhitni himoya qilish va iqtisodiy barqaror rivojlanishi ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U ekologik xavf-xatarlarni samarali boshqarish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rag'batlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashni maqsad qildi. O'zbekistonda yashil sug'urtaning joriy etilishi ekologik xavflarni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishi rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, uning samarali ishlashi uchun tegishli huquqiy bazani yaratish, davlat siyosatlarini ishlab chiqish va amaliy choralarini ko'rish zarur. Yashil sug'urta tizimi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Buning uchun xalqaro tajribalarni o'rganib, milliy sharoitga moslashtirilgan strategiyalarni amalga oshirish talab etiladi.

Yashil sug'urta orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologiyani asrashning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

**Ekologik xavf-xatarlarni boshqarish:** Yashil sug'urta ekologik xavflar, jumladan, tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishining iqtisodiy ta'sirlarini kamaytirishga yordam beradi. Bu orqali iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va ekologik risklarni boshqarish mumkin bo'ladi.

**Barqaror iqtisodiy o'sish:** Yashil sug'urta barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan infratuzilma va loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu, o'z navbatida, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

**Investitsiyalarning rag'batlantirishi:** Yashil sug'urta, qayta tiklanadigan energiya manbalariga va barqaror texnologiyalarni rivojlanishiga investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu ekologik barqaror iqtisodiyotni ta'minlash uchun zarur bo'lgan molivayiv manbalarini yaratadi.

**Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash:** Yashil sug'urta iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Sug'urta mahsulotlari orqali korxonalarining hamda aholining iqlim o'zgarishi natijasida molivayiv yuqotishlarni o'mini qoplaysidi.

**Resurslarni samarali boshqarish:** Yashil sug'urta tizimi resurslarni tejash va qayta ishlashni rag'batlantirish funksiyasini ham ko'rshimiz mumkin. Bu, o'z navbatida, tabiat resurslarini tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Ijtimoiy mas'uliyat va atrof-muhitni muhofaza qilish:** Yashil sug'urta orqali kompaniyalar ishlab chiqarishda o'zlarining ekologik javobgarligini bajarish imkoniyatini yaratadi. Bu ham ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi, ham atrof-muhitni himoya qilishga xizmat qiladi.

**Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish:** Yashil sug'urta tizimining joriy etilishi va samarali ishlashi uchun xalqaro hamkorlik muhimdir. Mamlakatlardan o'tsasidagi tajriba almashish orqali global ekologik masalalarga qarshi kurashishing samarali usullari ishlab chiqilishi mumkin.

Yashil sug'urta nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki ekologik muammolarni hal qilishda ham samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu ikki jihatning uyg'unligi jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyot - iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, energetika tanqisligi, qayta tiklanmaydigan resurslarning tugab borishi ayni paytda butun dunyonni, ayniqsa, markaziy osiyo davlatlarini chuqr tashvishga solib qo'ydi. Va buning yechimi sifatida yashil iqtisodiyotga tezkorlik bilan o'tish yo'llini tanlashmoqda. Albatta yashil iqtisodiyot barqarorlikning kalitidir.

Markaziy osiyoda ham iqlim o'zgarishi natijasida yog'ingarchiliklarning kamayishi, yoki keskin ob-havoning sohib ketishi, anomal issiq havoning kirib kelishi kabi holatlar tez-tez kuzatilmoqda.

Jumladan, yurtimizning yaqin o'tmishida sodir bo'lgan voqealarga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

Buxoroda – 2020 yilning aprel oyida bo'lgan tabiiy ofat, ya'ni kuchli shamol oqibatida viloyat bo'yicha jami 5 293 ta obyektga shikast yetdi.

Sirdaryoda sodir bo'lgan Sardoba suv omborining yorilishi natijasida Sardoba, Mirzaobod, Oqoltin tumانlарida 4710 ta uy vayron bo'lgan, bir necha yuzlab avtotransport hamda uy hayvonlariga zarar etган bo'lib, jami moddiy zarar hajmi bir necha yuz milliard so'mni tashkil etdi. Zarar ko'rgan obyektlarning atigi bir foizi ham sug'urtalanmaganligini ko'rish mumkin. Osiyo davlatlarida zilzila sababli ham ko'plab aholi ziyan ko'rmoqda. Mamlakatimiz o'tmishiga ham qaraydigan bo'lsak, 1966 yil 26 apreldan 27 aprelga o'tar kechasi Toshkentda kuchli zilzila sodir bo'lishi natijasida minglab insonlar moddiy yo'qotishlarga uchragan bo'lsa yuzlab insonlar tan-jaroxati oldi va bir qancha kishi vaftot etdi.

Yuqoridagi kabi holatlar natijasida nafaqat moddiy qiymatli mulklar va insonlar hayoti va sog'lig'iqa, balki tabiatning asosiy belbog'i hisoblangan qanchadan qancha dov-daraxtlar, ekinlarga zarar yetdi. Ayniqsa sardoba voqeasi natijasida nobud bo'lgan hayvonlar tufayli ekoliyiya va atrof muhitga to'g'ridan to'g'ri zarar yetganini anglesh qiyin emas.

Umumiy olib qaraydigan bo'lsak, FVV ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonda har yili tabiiy va texnogen ofatlar o'rtacha 1,4 million kishiga ta'sir o'tkazgan holda, 3 milliard dollarga yaqin zarar yetkazmoqda[5]. Bu ma'lumotlar o'z o'mida mamlakatimizda yashil sug'urtani joriy qilinishining dolzarbligini anglatadi.

Jahonda Germaniya yashil sug'urtani amaliyotga joriy etishda ilg'or hisoblanadi. Shuningdek, Shvetsiya, Kanada, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya hamda Yaponiya davlatlarida qayta tiklanadigan energiya manbalarini sug'urtalash va ekologik jihatdan toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi polislari keng tarqalgan. Germaniyada yashil sug'urtaning rivojlanishi, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror energiya ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar orqali amalga oshirilmoxda.

Jadval 1

#### Xalqaro yashil sug'urta bozori[6]

Ma'lumot Turi	Statistik Ko'satikchilar	Yil
Bozor Hajmi	30 milliard dollar	2021
Kutilayotgan Bozor Hajmi	70 milliard dollar	2028
Yillik O'sish Sur'ati	12%	2021-2028
Iste'molchilar E'tibori	65% mijozlar yashil sug'urtani tanlashga tayyor	2023
Sug'urta Kompaniyalari	100+ kompaniya	2022
Yashil Loyihalarga Investitsiya	500 milliard dollar	2023
Tabiiy Ofatlar Natijasida Sug'urta To'lovlari	120 milliard dollar	2022
Yashil Sertifikatlar Olinqan Loyihalar	10.000+ binolar	2023

Yuqoridagi mamlakatlardan tajribasidan kelib chiqib, yashil sug'urta bozorining kengayishi va ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha global harakatlarning kuchayishi davom etmoqda. Ularning yondashuvlari, ekologik xavflarni boshqarish va barqaror rivojlanishi ta'minlashda o'rnak bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, yashil sug'urta bozori jadal rivojlanmoqda. 2021 yilda 30 milliard dollar bo'lgan bozor hajmi 2028 yilgacha 70 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa yiliga 12% o'sish sur'atini anglatadi. Mijozlarning 65 foizi yashil sug'urtaga qiziqish bildirayotgani va investitsiyalar hajmi 500 milliard dollarga yetgani bu yo'nalishda katta istiqbollar mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, tabiiy ofatlar natijasida sug'urta to'lovlari 2022 yilda 120 milliard dollarni tashkil etgani ekologik xavflarni kamaytirish uchun yashil sug'urtaning muhimligini yanada oshiradi.

#### Takliflar (Предложения, Suggestions)

- Yashil sug'urtani keng targ'ib qilish – Mijozlarda mazkur sug'urtaga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, uning foydali jihatlarini to'g'risida tushunchalar paydo qilish maqsadida yashil sug'urta mahsulotlari haqida imkon qadar ko'proq ma'lumot berish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Buning uchun avvalo yashil sug'urta mahsulotlarni mukammal o'zlashtirigan mutaxassislariga ega bo'lish lozim.

2. Ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash – Yashil loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish va sug'urta kompaniyalarini ushbu yo'naliishga jalg qilish lozim.
3. Davlat tomonidan rag'batlantirish – Hukumat yashil sug'urtaga soliq imtiyozlari yoki subsidiya berish orqali ushbu bozorni rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin.
4. Tabiiy ofatlarga qarshi strategiyalarni ishlab chiqish – Sug'urta kompaniyalari ekologik xavflarni kamaytirish uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqishlari lozim.
5. Yashil sertifikatlash tizimini rivojlantirish – Binolar va loyihalar uchun yashil sertifikatlar olishni yengillashtirish va uning ahamiyatini oshirish kerak.
6. Yashil sug'urtaning majburiy tularini ishlab chiqish kerak.

**References:**

1. Lex.uz <https://lex.uz/uz/docs/-6824178>
2. 2021 yilda "EDP Sciences" jurnalida chop etilgan "China's green insurance system and functions" maqolasidan
3. 2023 yilda "Universe scientific Publishing" jurnalda chop etilgan "Development of Green Insurance in China" maqolasidan
4. "INTERNATIONAL FINANCE CORPORATION WORLD BANK GROUP"ning 2013 yildagi "Insurers as Partners in Inclusive Green Growth" hisobotidan
5. Gazeta.uz nashri <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/23/disasters/>
6. Statista. (2023). "Market Size of Green Insurance Worldwide."
7. World bank dokumens Insurers as Partners in Inclusive Green Growth
8. Deloitte.(2022). "Global Insurance Industry Outlook: Embracing Sustainability." Deloitte Insights
9. <https://insurance.tsue.uz>
10. United Nations Environment Programme (UNEP).(2021). "Insurance and Climate Change: A Global Perspective." UNEP
11. Universe Scientific Publishing Development of Green Insurance in China
12. Lex.uz
13. gazeta.uz

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish natijasida yashil sug'urta bozori yanada tez rivojlanib, barqaror iqtisodiy va ekologik muhit yaratishga yordam beradi.

**Xulosos (Вывод, Conclusion)**

Yashil sug'urta orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologiyani asrash nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki ekologik muammolarni hal qilishda ham samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu ikki jihatning uyg'unligi jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Yashil sug'urtanining samarali ishlashi uchun tegishli huquqiy bazani yaratish va davlat siyosatlarini ishlab chiqish muhimdir.